

ABDUQODIROV Muhammadjon
“Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi
o’quvchisi
Ilmiy rahbar: Yunusjon Akhmedov

AMIR TEMUR SALTANATIDA DAVLAT BOSHQARUVINI MUSTAHKAMLASHDA ISLOM DININING ROLI

РОЛЬ ИСЛАМСКОЙ РЕЛИГИИ В УСИЛЕНИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ ИМПЕРИИ АМИРА ТЕМУРА

THE ROLE OF ISLAM IN STRENGTHENING STATE ADMINISTRATION IN THE REIGN OF AMIR TEMUR

Annotatsiya. Amir Temur siyosiy jihatdan nihoyatda murakkab jarayonlar kechayotgan tarixiy davrda yashab o’zining kuchli davlatini barpo etishga muvaffaq bo’lgan. O’zining uzoq yillik jismoniy, aqliy va ruhiy zahmatlari evaziga bunyod etgan davlatini boshqarish, uning barqaror rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarini ishga solgan. Jumladan, islom dini qoidalarini samarali qo’llash, islom ruhoniylarining aqlu-zakatidan davlat boshqaruv jarayonida foydalanish Amir Temurga siyosiy, ma’naviy va axloqiy barqaror davlatni bunyod etish va boshqarishda juda katta imkoniyatlar eshigini ochgan.

Kalit so’zlar: islom dini, ruhoniylar, shayxlar, Qur’on, hokimiyat, markazlashgan davlat, fatvo, diniy vaziyat, tasavvuf, maqbara, adolat, hukmdor.

Аннотация. Амир Темур сумел построить свое сильное государство, живя в исторический период чрезвычайно сложных политических процессов. Он использовал все свои возможности для управления государством, которое он построил в результате своих многолетних физических, умственных и духовных усилий, для его устойчивого развития. В частности, эффективное применение правил исламской религии, использование интеллекта исламского духовенства в процессе государственного управления открыли перед Амиром Темуrom большие возможности для создания и управления

политически, духовно и нравственно стабильного государства.

Ключевые слова: исламская религия, священники, шейхи, Коран, власть, централизованное государство, фетва, религиозная ситуация, суфизм, мавзолей, справедливость, правитель.

Annotation. Amir Temur managed to build his strong state, living in a historical period of extremely complex political processes. He used all his abilities to manage the state, which he built as a result of his many years of physical, mental and spiritual efforts, for its sustainable development. In particular, the effective application of the rules of the Islamic religion, the use of the intellect of the Islamic clergy in the process of state administration opened up great opportunities for Amir Temur to create and manage a politically, spiritually and morally stable state.

Key words: Islamic religion, priests, sheikhs, Koran, power, centralized state, fatwa, religious situation, Sufism, mausoleum, justice, ruler.

KIRISH

O’rta asr musulmon Sharqida islom dini kishilar hayotining barcha sohalariga kuchli ta’sir ko’rsata olgan. Chunki din shaxs tarbiyasi, uning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini tartibga solgan. Shuning uchun islom dini har qanday musulmon davlatining yagona mafkurasi edi, bu mafkura davlatlarning vujudga kelishi, rivojlanishi, uning mustahkam bo’lishiga kuchli zamin yaratgan. Shuning uchun barcha hukmdorlar din omilidan o’z davlatlarini mustahkamlashda samarali foydalanib kelishgan.

O’rta asrlar musulmon Sharqida eng kuchli davlatni bunyod etgan Amir Temur ham islom dinini davlat mafkurasi deb e’lon qilib, o’zi din va uning ravnaqiga, jamiyatda ustuvor bo’lishiga homiylik qiladi. Natijada islom va uning an’analari davlat ichki hamda tashqi siyosatining asosiy tamoyillarini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’ldi. Amir Temurning qanday omillar ta’sirida islom dinini ravnaqiga homiylik qilgani, uning davlatchilik tajribasida din qanday ta’sir kuchiga ega bo’lganligi, siyosiy masalalarni qay tarzda din bilan muvaffaqiyatli kelishtira olganini ilmiy jihatdan o’rganish dolzarb ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM

Avvalo shuni alohida ta'kidlash kerakki, Amir Temur tavallud topgan oilada islom an'analari ustuvor bo'lib, uning bolalik davridanoq Qur'oni karim, hadislar ta'sirida tarbiyalanishiga o'ziga xos muhit yaratilgan. Chunki otasi Amir Tarag'ay tinchliksevar inson bo'lib, u harb ishlaridan ko'ra ko'proq diniy vazifalar bilan mashg'ul bo'lardi. Temur o'smirlik mashg'ulotlaridan bo'sh paytlarida Kesh masjidiga qatnar, taqvodor otasi Tarag'ayga munosib tarzda diniy bilim olishga intilardi. Uning shayx va ulamolar majlislarida tez-tez ishtirok etishi hamda shariat aqidalarini yaxshi egallagani jangari urug' farzandi bu sohada chuqur ta'lim olganidan dalolat berardi [9:17-18].

Amir Temur tarixini tadqiq etgan mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra Amir Temur bolalik yillaridanoq Qur'oni karimni yod bilgan, uni ulamolar imtihon qilishib, quvvai xotirasiga tasannolar aytishgan. Keyinchalik Temurning otasi farzandini o'zining e'tiqod qo'ygan piri Shamsiddin Kulolga yaqinlashtirgan, Shamsiddin Kulol ham Temur tarbiyasiga kuchli ta'sir o'tkaza olgan [14:213]. Hayoti davomida islomiy qadriyatlarga kuchli hurmat ruhida tarbiyalangan Temur bu ananalarni faqat mustahkamlashga harakat qiladi. O'zining siyosiy maqsadlarini ro'yobga chiqarishda islom va uning ulamolarini ta'sir kuchidan samarali foydalangan, natijada mustahkam davlat bunyod etishga, davlatini ma'naviy qiyofasini insoniylik ruhida bo'lishiga erisha olgan.

Temur ma'naviyatining islomiy asoslari bir qancha omillar asosida shakllanib, qaror topgan edi. Birinchidan, XIV asrga, xususan, uning o'rtalariga kelib Movarounnahr moddiy, madaniy, islomiy jihatlardan yangidan yuksalib, o'zining o'tmishdagi shon-shuhratini tiklay boshladi. Ijtimoiy hayotda tobora o'z o'rniga ega bo'layotgan Temur ana shunday dunyoviy va islomiy, moddiy va ma'naviy madaniyatdan unumli bahramand bo'lgan. Ikkinchidan, XIV asrning ikkinchi yarmiga kelib Turkistonda tasavvufning naqshbandiya ta'limoti keng yoyildi va u mustaqillik, vatanparvarlik, ijodiy mehnat, farovon hayot mafkurasi sifatida qaror topdi. Siyosiy qarashlar silsilasida toblanib, chiniqib kelayotgan Temur ma'naviyati Naqshbandiya g'oyalari asosida mukammallashib

bordi. Uchinchidan, Temur ma'naviyatida islomiy arkonlarning muhim o'rin tutishida uning pirlari shayx Sayyid Baraka, Zayniddin Tayobodiy, Amir Kulol kabilarning ham salmoqli hissasi bo'lgan. Ulardan ayrimlari keyinchalik saroyda Amir Temur huzurida yashaganlar.

Tarixiy manbalarga ko'ra o'rganilayotgan davrda Keshda taniqli muhaddislar, "uch imom" – Abu Muhammad al-Keshiy, Abdulloh ibn Abdurahmon ad-Dorimiy as-Samarqandiy va Abu Abdulloh ibn Ismoil al-Buxoriylar to'planishgan. Abul Husayn Muslim ibn Hajjoj al-Kushayriy an-Nishopuriy ham Keshga tashrif buyurib, Abdurahmon ibn Humayd al Keshiydan saboq olgan. Shu sababli Keshga "Qubbat ul-ulm val adab" unvoni berilgan edi. Bunda Temurning otasi Muhammad Tarag'ayning ham katta hissasi bo'lgan, albatta. Bu omil Amir Temurga tarbiya berish, savodli, bilimdon va zamonasining yetuk kishisi bo'lib yetishishiga yetarli imkoniyatlar yaratgan [8:63].

Amir Temur dunyoqarashining shakllanishida o'sha davrda yuzaga kelgan murakkab tarixiy vaziyat ham muhim o'rin tutadi. Chunki bu davrda mug'ullar bilan turkiy qavmga mansub elatlar o'rtasida e'tiqod uchun keskin kurash ketardi. Bu kurash yosh Temur e'tiqodining shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi. Chingizxonning ikkinchi o'g'li – Chig'atoy o'ziga tegishli katta sarhadda yashovchi musulmonlarni juda qattiqo'llik bilan boshqargan. Chunki u, tarixchilarning tasdiqlashicha, nasroniy dinida bo'lgan. Buni buyuk sayyoh Marko Polo ham qayd etgan. Holbuki, Chig'atoy ulusi islom dinida edi. Lekin shunga qaramay, Chig'atoy nasroniylarga homiylik qilgani holda, musulmonlarga nafrat ko'zi bilan qarardi. Boshqa uluslarni boshqargan chingiziylar ham ulardan qolishmagan [7:21].

Ma'lumki, Amir Temur siyosiy maydonga kirib kelgan XIV asrning 60-yillari o'ta murakkab siyosiy jarayonlar amal qilayotgan davr bo'lib, mo'g'ul hukmdorlari o'rtasida toju taxt uchun keskin kurash ketayotgan edi. Bunday sharoitda Temurda hokimiyatga to'g'ridan-to'g'ri davogarlik qilishga deyarli imkoniyati yo'q edi. Ammo u hokimiyatga intilayotgan turli siyosiy kuchlar o'rtasidagi kurashlar, vujudga kelgan qulay siyosiy vaziyatlardan o'z maqsadiga erishish yo'lida samarali foydalanishi mumkin edi. Shuning

uchun Temur imkoniyatlarning eng kichigini ham e'tiborsiz qoldirmagan, o'zining siyosiy va harbiy ta'sirini oshirishga yordam beradigan omillarni o'z maqsadlariga xizmat qildirgan. Bunday sharoitda unga diniy ulamolar ham yetarli yordam bera olgan, ularning ma'naviy ta'sir kuchi Temurni hokimiyatga kelishini tezlashtirgan.

Siyosiy hokimiyat qo'liga tekkandan keyin esa Amir Temur islom qadriyatlarini ta'sirida xudoyi-taoloning bandalariga rahm-shafqatli bo'lishga, xudoyi-taolo itoatini bajo keltirishga, din ishini dunyo ishidan ustun qo'yishga, rost so'z aytishga, rost so'zni eshitishga, din va dunyo ishini rostlik bilan olib borishga harakat qilgan [2:21]. Mug'ullarning bir yuz ellik yillik jabru zulmidan keyin hokimiyat tepasiga kelgan Amir Temur uchun adolat tamoyillarini ustuvorligiga erishish asosiy maqsad bo'lgan. Bu maqsadga intilishi ham uning shaxsiy va diniy tarbiyasining mevasi edi. Uzoq davr zulm va jaholatni boshdan kechirgan xalq ommasiga adolatli hukmdor atrofida birlashish o'ziga xos tarixiy zarurat ham edi.

Amir Temurga xos bo'lgan ma'naviy salohiyat, uning islomiy mohiyati mustaqil davlatni boshqarish yillarida ijtimoiy hayotning iqtisodiy, moliyaviy, savdo, siyosiy, madaniy, huquqiy, harbiy diplomatiya va xalqaro qarashlari ham islomiy qoidalar, fiqh bilimlari asosida yo'g'rildi, qaror topdi, amalda ijtimoiy hayotga tatbiq etildi. Masalan, Temur davlatni ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishda, shuningdek, o'zining ijtimoiy-siyosiy faoliyatida besh tamoyilga, ya'ni Allohga, tafakkurga, iymonga, kitobga va nihoyatda murakkab vaziyatlardagina qilichga tayanganligi fikrimizning tasdig'idir. Amir Temur ma'naviyati islomiy asoslarning sofliqi, tiniqligi shundaki u butun hayoti davomida, har qanday vaziyatda ham xurofot kabi illatlar ta'siriga tushmagan [17:227].

Temur siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritgandan keyin davlat boshqaruviga kirishar ekan siyosiy-harbiy muammolarning eng nozik jihatlarini hal etishda, muhim qarorlarni qabul qilishdan oldin Qur'onda fol ochgan va oyatlar ma'nosiga qarab ish tutgan. Bu haqda Sohibqiron ta'kidlaydiki: "Lekin biron ishni qilmoqchi bo'lsam, kengashib olib, keyin Qur'ondan fol ochardim va Qur'on hukmi bilan ish qilur edim. Tug'luq Temurxon oldiga borishdan avval Qur'ondan varaq ochsam, "Surayi Yusuf" chiqdi va Qur'oni majid hukmiga amal qildim"

[1:63]. Yoki, Temurga foydali maslahatlar bergan shaxslar ham o'z qarorlarini Qur'on suralaridagi ma'lumotlar bilan asoslashga harakat qilishgan. Masalan, Temurga yakka hokimlikni tavsiya qilgan Bobo Ali Shoh Qur'onda fol ochib, ulug' oyat yordamida asoslaydi: «Shu payt (avliyolardan hisoblangan) Bobo Ali Shoh oldimga keldi va: "Temurbek Tangri taolo buyurganki, agar yerda va ko'kda ikki xudo bo'lsa, jahonning ishi buzilur", dedi. Men uning so'zlarida hidoyat topdim. Qur'oni majiddan fol ochsam, ushbu qutlug' oyat chiqdi: «Inna jaalnaka xalifatan fil arz», ya'ni «Biz seni yer yuzida xalifa qildik (Qur'on, «Sod» surasi, 26-oyat)». Men buni istiqbolning xayrli va muborak follari qatoriga kiritdim. O'zlarini davlat sherigi bilib, menga bo'ysunishni istamagan amirlarni turli tadbirlar ishlatib o'zimga itoat ettirish uchun turli yo'llar qidirdim" [1:63].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Amir Temurning din masalasidagi siyosati u davlat tepasiga kelmasdan ancha oldin namoyon bo'lgandi. 1361 yilda u Jetadan hujum qilib kelgan ko'chamchilar qo'lidan ular asir olgan yetmishta termizlik sayidni qutqazib qolgan va bu ishi uchun Tug'luq Temurning g'azabiga uchragan edi. Shundan boshlab Movarounnahrda barcha sayyidlar uning tarafiga o'tgan edilar. Ular O'rta Osiyoni mo'g'ul zulmidan ozod etgach, Amir Temur sayyidlarni payg'ambar avlodi sifatida yanada ko'proq ehtirom eta boshlaydi [10:21].

Temur o'zining siyosiy maqsadlarini amalga oshirish jarayonida islom an'analarini hurmat qilish, musulmonlarning diniy qadriyatlarini e'zozlash, ularga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish orqali bunyod etmoqchi bo'lgan davlatning mafkuraviy jihatdan mustahkam bo'lishiga erishish imkoniyatiga ega bo'lar edi. Aytish mumkinki, Shayx Shamsiddin Kulol, Burhoniddin Sohib Hidoyat, Zayniddin Abubakr Tayobodiylarning ma'naviy ta'siridagi Temur bu maqsadini muvaffaqiyatli ado eta olgan edi. Sharofiddin Ali Yazdiyning aytishicha, Chingizxon qaysi shahar va viloyatni bosib olgan bo'lsa, u joylar xarobalarga aylangan. Amir Temur tomonidan zabt etilgan manzillar buzg'unchilar, nizochilardan tozalanib, shariat tartib-qoidalarini o'rnatilgan [7:28].

Temur o'z "Tuzuklari"da islom dini mohiyatiga alohida to'xtalib, "Yana tajribamda ko'rib oldimki, davlat agar dinu oyin (qoida) asosida qurilmas

ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi... Shuning uchun ham men o'z saltanatim binosini dini islom ... asosida mustahkamladim" [1:57]. Amir Temurning chingiziylar avlodining so'nggi vakillaridan biri – Tug'luq Temurxon o'g'li Ilyosxo'jaga qarshi kurashida islom dini vakillari unga madadkor bo'ladilar. Ular mug'ullarga qarshi kurashda Temurga fatvolar beradilar. Bu fatvolarni tarqatishda qalandarlar o'z jonlarini ayamay tashviqot ishlarini olib boradilar. Ular shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib: "Bilib qo'yinglarkim, bizning xaloskorimiz Temurdir", "Temurni duo qilinglar!", deya butun Movarounnahrda jar solgan edilar [13:62].

Amir Temur islom dini omilidan davlat boshqaruv jarayonini mustahkamlashda ham unumli foydalangan. O'z farmonlari qanday bajarilayotganini diqqat bilan kuzatish maqsadida turli mamlakatlardagi sadrlar va qozilarga shariat qonunlariga rioya etmoqni asosiy vazifa qilib yukladi. Temur davlat boshqaruvini amalga oshirishda sayidlar, ulamolar, shayxlar, fozillarni o'z atrofiga jipslashtiradi. Bu martabasi ulug' diniy arboblardir doimo Amir Temur majlisiga fayz kiritib turganlar. Temur diniy, huquqiy, aqliy masalalarni o'rtaga tashlab, muhokama, munozara, bahs asosida muammolarni ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi muammolarni odilona yechib, bu toifadagi dono kishilardan qimmatli fikrlarni saralab oladi. Eng muhimi – halol va haromga oid o'ta nozik masalalarning farqiga boradigan bo'ladi, turli toifa kishilarini teng ko'rishni o'rganadi: "Men o'zimning ikromiyatim va rahmdilligim tufayli kishilarning eng past tabaqalarining ham, hatto gadolarning ham rahmatiga sazovor bo'ldim. Payg'ambar avlodlariga har doim katta hurmat bilan qaradim" [3:9].

Din masalasida Qutbiddin nomiga sazovor bo'lgan Amir Temur mamlakatni boshqarishda xatoga yo'l qo'ymay, odil siyosat yuritishni nazarda tutganligidan, doim davlat ahamiyatiga ega bo'lgan qaror va farmonlarni qabul qilishdan oldin o'zining pirlari va mamlakatdagi ahli olimlar bilan maslahatlashib olgan. Uning saroyida Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsiddin Munshiy, Mavlono Abdulla Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Xo'ja Afzal, Xoja Bahouddin va boshqa ko'p olimlar, ulamolar xizmat qilib,

davlatning ichki va tashqi siyosati, xalqning iqtisodiy ahvolini to'g'ri yo'ldan olib borishga yordamlashib, maslahatlar berishgan [4:14].

Amir Temur davlatida feodal tabaqalar orasidan eng tasirli guruh bu musulmon ruhoniylari edi. Mamlakat viloyatlari va shaharlaridagi shayxulislomlar, qozilar, masjidlardagi imom-xatiblar, voizlar, madrasa mudarrisilari jamiyat ijtimoiy hayotida katta ta'sir kuchiga ega bo'lishgan. Ular Temur davlatida o'zlarining bevosita vazifalaridan tashqari dunyoviy lavozimlarni ham egallab mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga munosib hissa qo'shishgan. Amir Temur davlatida shayxulislom lavozimida avval Abdul Malik, keyinchalik uning jiyani Abdul Avval ishlagan bo'lib, ular Burhonuddin Marg'inoniy avlodlari edilar. Amir Temur hukmronligi davrida darvish birodarligining rahbarlari bo'lgan shayxlar ham katta rol o'ynashgan. Temurni zafarli yurishlarga ruhlantirishda Shayx Shamsuddin Faxuri, sayyid Baraka, Zayniddin Tayobodiyning roli katta bo'lgan. Temur barcha qozilardan qonuniylikni, adolat bilan hukm chiqarishni talab qilgan va bu talablarga qat'iy rioya etilishi natijasida mamlakatda ijtimoiy buzilishlar keskin kamaygan [6:119].

Temur o'z davrining diniy vaziyatini chuqur tushunganligi uchun aynan din va davlat o'rtasidagi munosabatlarda oltin o'rtalikni topa olgan. Nafaqat Movarounnahr va Xurosonning, balki musulmon Sharqining barcha mintaqalarida islom dinining ma'naviy pirlari – muqaddas Makka shayxlari jamiyat hayotida katta ta'sirga ega bo'lishgan. Ular feodal zodagonlar orasida ham katta ta'sir kuchiga ega bo'lishgan. Xasis va zulmkor Amir Husayn muqaddas Makka foydasiga zakot to'lashdan bosh tortib Mir Sayyid Baraka rahbarligidagi Makka shayxlari namoyandalarini noroziligiga uchragan edi. Amir Temur Balxga yurishga o'tlanib Termiz yaqinidagi Biyyo qishlog'iga yetib kelganida uni Mir Sayyid Baraka kutib oladi, unga davlat ramzlari bo'lgan nog'ora va bayroqni taqdim etib, uning hokimiyatga kelsini Olloh istagi bilan bog'laydi va uni dunyoda islom himoyachisi bo'lishga da'vat etgandi.

Amir Temur o'zining aqidalariga tayanib islomning axloqiy va ma'naviy kuchidan o'z davlatini mustahkamlashda mohirona foydalana olgan. 1370 yili Balxdagi o'tkazilgan qurultoyda

amirlar va ko'plab sayyidlar Movarounnahr taxtiga Amir Temur kelishini bashorat qilib turganda, u taxtga jimgina Suyurg'otmishxonni o'tkazadi. Ammo Temur bu xatti-harakati bilan bir o'q bilan ikki nishonni urgan edi. Birinchidan, u parchalanib ketgan Chingiziylar va muxolifatdagi mo'g'ul amirlariga Chig'atoy ulusini tiklash istagi borligini ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchidan ruhoniylarni xotirjam qilgan edi. Chunki Temur nominal hukmdorni tayinlagani bilan, amalda davlatni hech qanday moneliksiz o'zining farmonlarini Suyurg'otmishxon nomidan chiqarib boshqarish imkoniyatiga ham ega bo'lgan edi. Shundan so'ng, Temurning har bir jiddiy siyosiy qadamlari unga xayrxoh sayyidlar va ma'naviy pirlarining maslahatlari va duolari bilan amalga oshgan edi [16:19].

Amir Temur o'zining davlat va bunyodkorlik rejalarini amalga oshirishda Sharqning islom markazlaridan biri Buxoroga ham katta e'tibor bilan qaragan. Buxoro azaldan din, ma'naviyat va ilm-fan markazi ekanligini bilgan Amir Temur o'zining ijtimoiy-siyosiy faoliyatida Buxoroni nazardan chetda qoldirishi mumkin emasdi. Chunki XIV asrda Buxoroda yashab ijod etgan Bahouddin Naqshband, Sayfiddin Boxraziy, Xo'ja Ismat Buxoriy, Sa'duddin Taftazoniy, Muhammad Porso kabi allomalar Temur davlati ma'naviy muhitini ko'p jihatdan belgilab berganlar. Islom dunyosida katta shuhrat qozongan Mavlono Sa'duddun Taftazoniy 1322 yilda Xurosonda tug'ilgan, u tafsir, fiqh, mantiq, islom aqoidlari va boshqa sohalariga atab qator asarlar yaratgan. Amir Temur xizmatida bo'lgan bu ruhoniylar Movarounnahrning bir necha shaharlarida, jumladan, Buxoro, G'ijduvonda bo'lib, ilm-ma'rifat tarqatadi. Uning madrasa talabalari uchun islom dinidan yozgan darsliklari Turkistonda o'lkasida bir necha asr xizmat qilganligini inobatga olsak, uning Temur davlatidagi ma'naviy mavqeyi juda baland bo'lganligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin [17:149].

Amir Temur o'z faoliyatining dastlabki kunlaridan to oxirigacha amalga oshirgan barcha tadbirlarni o'z davri shart-sharoitlarini hisobga olgan holda islom dinini mustahkamlash shiori ostida hayotga tadbir qilib borgan. Bu esa unga bir tarafdin Movarounnahrni yagona davlat sifatida tiklash, qariyb bir yarim asr davom etgan

g'ayridin mo'g'illar hukmronligi natijasida diniy e'tiqodning susayishidan norozi bo'lgan aholi qatlamlarini o'z atrofida jipslashtirish imkonini bergan bo'lsa, ikkinchi tarafdin Sohibqironning xorijiy yurishlarida unga harbiy-siyosiy kuchlar qarshiligini sindirishda ham g'oyaviy qurol sifatida qulay sharoit tug'dirib kelgan [10:21].

Temur islom dinining ayrim oqimlarini o'zlariga niqob qilib saltanatda o'rnatilgan tartib qoidalarga nisbatan norozilik harakatlarini qo'zg'ash uchun qilingan har qanday urinishlarni qoraladi va ularni jazoladi. "Sayyidlar orasidan layoqatli bittasini, deb yozilgan "Temur tuzuklari"da, - ahli islomga sadr etib tayinladim. Tamom vaqflarni boshqarish va nazorat qilish uchun mutavalliy tanlashni, har bir shahar va viloyatda qoziy, muftiy, muhtasib tayinlashni uning o'ziga havola etdim. U sayyidlar, ulamo, shayxlar va boshqa diniy arboblarga suyurg'ol belgilab, har birining vazifasini tayin qilsin dedim". Demak, diniy arboblarning moddiy jihatdan ta'minlanishiga ham Amir Temur alohida e'tibor berib kelgan [1:57].

Amir Temur Qur'oni Karim so'zlari kuchli ta'sirga ega bo'lib, insonlar va xalqlar taqdirini hal qilish qudratiga egaligiga ishongan. Bunga misollar "Tuzuklar"da ham mavjud. Amir Temur Iroqni zabt etishga o'tlanib, ortida qolguvchi bir qancha mamlakatlarni zabt etishga qaror qiladi. Shunda Mozandaron hokimi amir Ali unga maktub yo'llaydi: "Biz hazrati Ali avlodidan bo'lgan bir jamoamiz. Shu yerda qanoat qilib kun kechirayotibmiz. Bu yerni olsangiz quvvatu kuchingiz ortar. Ammo kechib yuborishingiz taqvoga yaqinroq ishdur [8:237], - degan gaplar bitilgan edi. "Men Mozandaron hokimining itoat bildirib qilgan bu murojaatini yaxshilikka yo'ydim. Keyin G'ilon, Jurjonga qarab yo'l oldim. U o'lkaning hokimlari menga bo'ysunmagach, qahrli lashkarim favjlarini ularning ustiga jo'natdim, o'zim esa Iroq sari lashkar tortdim", deya yozilgan "Tuzuklar"da.

Boshqaruvda milliy va islomiy an'analarni qorishmasini joriy etish, Amir Temur va Temuriylarga kuchli davlat boshqaruv tizimini yaratish imkonini bergan edi. Bu boshqaruv na diniy, na irqiy nifoq, na boshqa tafovutlar va sivilizatsiya to'qnashuvlariga aks ta'sir ko'rsatmagan. Bu davrda tashkil etilgan davlat boshqaruv asoslari barcha millat va elatlarning

taraqqiy etishiga imkoniyatlar yaratgan hamda integratsiya jarayonlarining kuchayishiga xizmat qilgan. Diniy mafkura siyosiy hayot mezonini belgilagan o'rta asrlarda davlat boshqaruvining millat va davlatlar manfaatiga xizmat qilishi o'z davridagi mintaqaviy taraqqiyotning omillaridan biri bo'lgan [15:32].

Amir Temur hokimiyati davrida shunday lahzalar ham bo'lganki din peshvolarning ba'zilari o'zlarining hukmdorlariga qarshi xiyonatkorona ish olib borishgan. Chunonchi, 1371 yili Amir Temur hokimiyatni yangi egallagan davrda unga qarshi fitna uyushtirilib, bir qancha amirlar qatorida nufuzli ruhoniylardan shayx Abullays as-Samarqandiy va Sayyid Abul-Maoliy at-Termiziy ham fitnada ishtirok etgandilar. Amir Temur fitnachilarga o'ta ko'ngilchanlik ko'rsatadi; shayx as-Samarqandiyga Makkaga ketishga ruxsat qilinadi. Sayyid at-Termiziy esa avval mamlakatdan quvg'in qilingan bo'lsa-da, so'ngra tez orada aybi kechiriladi, chunki 1372 yili Xorazmga qilingan yurish paytida bu sayyid ham qatnashgan edi. Shundan keyin har doim termizlik sayyidlar Amir Temurning sodiq tarafdorlaridan bo'lib qolgandilar. 1404 yili g'arbga qilgan oxirgi yurishidan qaytayotib, Amir Temur Termizda Xudovandzoda Ali xonadonida to'xtashi ham shundan dalolat beradi [12:75].

Ruhoniyat namoyandalari va taniqli ilohiyotchilar zimmasiga Amir Temur hokimiyati davrida mas'uliyatli vazifalar ham yuklanar edi. Masalan, 1393 yil oktabrida Amir Temur Qohiraga o'sha davrda Movarounnahrning ko'zga ko'ringan ayonlaridan biri shayx Sovajiy boshchiligida ko'pdan-ko'p qimmatbaho sovga'lar va sulton Barquqqa maktub bilan e'tiborli missiya yuborgan edi. Amir Temurning mo'tabarli piri Sayyid Baraka o'z duosi bilan Sohibqironning g'animlariga qarshi kurashida uni qo'llab-quvvatlagan edi. Masalan, 1391 yilda Qunduzchada bo'lgan yirik jang oldidan Sayyid Baraka duo qilib, omad tilagani uchun Amir Temur undan g'oyatda mamnun bo'lgan edi [12:77].

Sohibqiron doimo aziz-avliyolarning hurmatini bajo keltirib, ular xotirasiga alohida ehtirom bilan qarardi. Movarounnahrda tashqari, boshqa mintaqalarda ham islom dinining ravnaqiga munosib hissa qo'shgan tarixiy shaxslarning qabrlari, ziyoratgohlarini obod etishga farmonlar bergan. Damashqda turganida

Amir Temur Muhammad Payg'ambarning xotinlari Umm Salama va Umm Habibalarning maqabalarari ustiga munosib gumabazlar qurdirgan. O'z harbiy boshliqlari va qo'shinlariga Muhammad payg'ambarning sahobalaridan biri, musulmonlarning yirik harbiy qo'mondoni Xolid ibn Validning qabri joylashgan Ho'ms shahriga zahmat yetkazmaslikni buyurgan. Amir Temur farmoniga muvofiq xalifa Ali ibn Abu Tolibning qabrini yaxshi saqlash uchun Najaf bilan Xulla vaqf etiladi, Imom Husayn, ulug' shayx Abdulqodir G'iloniy, imomi a'zam Abu Hanifa va Bag'dodda qabrlari mavjud bo'lgan boshqa shayxlar hamda din peshvolarini mozorlarini yaxshi saqlash uchun Karbalo, Bag'dod va ular atrofida qishloqlar va boshqa yerlar vaqfidan mablag' ajratishga imkoniyat yaratiladi. Imom Muso Kozim, Imom Muhammad Taqi, Salmon Forsiylarning qabrlari uchun Jazoir ekin maydonlaridan vaqf belgilash haqida farmon bergan [12:78].

Shariat va davlat qonunlariga, shuningdek, urf qonunlariga bo'ysunish Amir Temur davlatida hukumat tiziming asosi bo'lib, barcha davlat idoralari, ayniqsa, harbiy sohalar uchun unga rioya qilish majburiy hisoblangan. Sohibqiron: "Men har doim askarlarimni qonunga rioya qilish ruhida tarbiyalab keldim, qonun buzuvchilarni jazosiz qoldirmadim", deb ta'kidlagan edi. Uningcha, faqat shariat qonunlarini, shuningdek, urf qonunlarini nazarda tutgandagina, millat o'z rahbarlariga ishonadi va ular tomonidan berilgan buyruqlarni jonu dil bilan qabul qilib bajaradi [11:27].

XULOSA

Amir Temur o'z davrining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy muhitidan kelib chiqib davlatni bunyod etish va mustahkamlashda, uning iqtisodiy va ma'naviy hayotini, huquqiy tizimini barqarorligini ta'minlashda islom dini omilidan samarali foydalangan. Islom dini an'alariga hurmat Amir Temur tomonidan din peshvolarini izzat-ikrom qilish, ularning maslahatlariga quloq solish, diniy namoayndalarning faoliyatiga xayrxohlik ko'rsatish, yordam berish, diniy ta'siri kuchli shaxsiyatlarni davlat ishlariga jalb etish, ularga mas'uliyatli topshiriqlarni ishonib topshirish, jamiyat axloqiy muhitini din peshvolari yordamida pok saqlashda, masjid, madrasa, xonaqoh, mozorlar,

maqbaralarni bunyod etish hamda ta'mirlashda namoyon bo'lar edi.

Islom dini ananalariga hurmat, uning ta'sir kuchidan davlat ishida foydalanish Temurga mustahkam markazlashgan davlat qurishga, uning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy hayotini barqaror saqlashga, o'zining prinsipial raqiblari ustidan g'alabalarni qo'lga kiritishda, diplomatik faoliyatida foydali bitimlar tuzishda katta yordam bera olgan. Eng muhimi Amir Temur islom an'alarini hurmat qilish bilan ir qatorda uning jamiyatda mustahkamlanishiga katta e'tibor berganligi, bu dinning ulkan ma'rifiy va bunyodkor kuchidan foydalanish orqali o'z davrida yirik saltanatni barpo etishga, bu saltanatda ilm-fan, madaniyatni ravnaqiga asos yaratgan, fuqarolarning yaratuvchanlik kuchini davlat taraqqiyotiga yo'naltira olishga muvaffaq bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Temur tuzuklari. Forscha matndan A. Sog'uniy va H. Karomatov tarjimai. –Toshkent.: O'zbekiston, 2016.
2. Temur qissasi (Qissai Temuriy, Temur esdaliklari, Malfuzoti Temuriy). - Toshkent.: Fan, 2004.
3. Ahmedov A. Ulug'bek. - Toshkent.: Fan. 1991.
4. Aleuova R. Sh. Amir Temurning ma'rifiy tarbiyaviy qarashlari. -Toshkent.: Fan, 2006.
5. Asqarov A. A. Amir Temur va uning tarixdagi roli. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. № 7-10. - Toshkent.: Fan, 1996.
6. Axmedov B. A., Mukminova R. G., Pugachenkova G. A. Amir Temur. - Toshkent.: Universitet, 1999.
7. Azimov E. Amir Temur saltanati. - Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.
8. Bo'riyev O. Turon tarixining oltin davri. - Toshkent.: Voris nashriyot.1999.
9. Lyusen Keren. Amir Temur. - Toshkent.: O'zbekiston, 2020.
10. Mannonov B., Ostonoova G., Kamoliddin Sh. Amir Temurning turkiy yorlig'i. - Toshkent.: Temuriylar tarixi davlat muzeyi, 2005.
11. Juzjoni A. Adolatga tayangan tuzum. Amir Temur va inson manfaatlar mavzuida o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. - Toshkent.: Sharq, 1998.
12. Uvatov U. Sohibqiron arab muarrixlari nigohida. - Toshkent.: Sharq, 1997.
13. Cherevanskiy V. Amir Temur. - Toshkent.: Yozuvchi, 1993.
14. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. - Toshkent.: Akademyashr, 2019.
15. O'ljayeva Sh.M. Amir Temur va Temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. - Toshkent.: Fan, 2005.
16. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. № 7-10. - Toshkent.: Fan, 1996.
17. Amir Temurning milliy davlatchilik siyosati: tarix va hozirgi zamon - mavzuidagi Amir Temur tavalludining 670 yilligiga bag'ishlangan ilmiy konferensiya materiallari. - Toshkent.: Fan, 2006.
18. Qur'oni Karim (ma'nolar tarjimai, tarjimon Abdulaziz Mansur). <https://n.ziyouz.com/>